



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar–dekabr, dastlabki ma'lumot)

2020- yil yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) **2383,4** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **10,0** % ga oshdi.

### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad

(2020- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad, mln.so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Respublika bo'yicha - jami</b>	<b>3069</b>	<b>148 366</b>	<b>4 243 473,3</b>	<b>2 383,4</b>
shu jumladan:				
Sanoat	35	14 272	637 438,0	3 722,0
Qurilish	13	2 231	64 698,6	2 416,7
Savdo	10	1 929	56 198,1	2 427,8
Tashish va saqlash	13	8 301	356 548,1	3 579,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	81	2 908,7	2 992,4
Axborot va aloqa	37	1 172	34 274,6	2 437,0
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	78	2 933	184 656,9	5 246,5
Ta'lim	1 398	68 125	1 569 672,2	1 920,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	80	25 193	609 301,1	2 015,4
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	75	2 413	50 911,3	1 758,2
Boshqa faoliyat turlari	1 326	21 716	605 730,5	2 324,4



## Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



### Maktabgacha ta'lim sohasi



1154,1 ming so'm

### Umumiy o'rta ta'lim sohasi



2042,2 ming so'm

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



1 920,1 ming so'm

### O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim sohasi



1618,3 ming so'm

### Oliy ta'lim sohasi



4044,3 ming so'm

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1920,1** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **5,4** % ga oshgan.




## Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ta'lim sohasi bo'yicha qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri - **125,3 %**, Kegeyli tumani - **106,2 %**, Xo'jayli tumani - **104,7 %** va Ellikqal'a tumani - **104,1 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, 12 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Beruniy tumani - **85,6 %**, Taxtako'pir tumani - **84,8 %**, Qorao'zak tumani - **83,6 %** hamda Mo'ynoq tumani - **82,0 %** hissasiga to'g'ri kelgan.


### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





## Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida **35** ta korxonada **14272** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **9,6** %)ni xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **637,4** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **15,3** %)ni tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3722,0** ming so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **4,0** %ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **8019,0** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **2,2** barobarga yuqori) va Taxiato'sh tumanida **3886,0** ming so'mni (**104,4** %) tashkil etgan bo'lsa, Kegeyli tumanida **1420,9** ming so'mni (**38,2** %), Qonliko'l tumanida **1490,6** ming so'mni (**40,0** %), Chimboy tumanida **1527,9** ming so'mni (**41,1** %) va Xo'jayli tumanida **1558,9** ming so'mni (**41,9** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.




## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Chimboy tumani - **129,9** %, Taxtakopir tumani - **124,4** %, Xo'jayli tumani - **105,2** % hamda Nukus tumani - **101,8** % hissasiga to'g'ri kelmoqda

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning 10 ta tumanida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Taxiotosh tumani - **85,0** %, Qo'ng'iro't tumani - **90,0** %, Bo'zatov tumani - **92,6** % hamda Beruniy tumani - **93,4** % hissasiga to'g'ri kelgan.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





## Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **78** ta muassasada **2933** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 %)ni xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **184,7** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,4% ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **5246,5** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **29,2** %ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'niy o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **5958,6** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **113,6%**) va Qo'ng'iro't tumanida **5334,4** ming so'mni (**101,7%**) tashkil etgan bo'lsa, Nukus tumanida **4051,9** ming so'mni (**77,2%**), Ellikqal'a tumanida **4393,9** ming so'mni (**83,7%**) va To'rtko'l tumanida **4415,4** ming so'mni (**84,2%**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, % da)




Respublika bo'yicha 2020- yil yanvar-dekabr oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida **29,2** % ga, tashish va saqlash sohasida **26,6** % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **18,6** % ga, savdoda **18,6** % ga, ta'lim sohasida **5,4** % ga, axborot va aloqada **4,9** % ga hamda sanoatda **4,0** % ga o'sganligi kuzatilgan bo'lsa, qurilish sohasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan - **5,9** % ga kamaygan.



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **3034,5** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **127,3** %), Qo'ng'iro't tumanida **2889,6** ming so'mni (**121,2** %) va Taxiatosh tumanida **2436,8** ming so'mni (**102,2** %) tashkil etgan bo'lsa, Beruniy tumanida **1764,9** ming so'mni (**74,0** %), Taxtako'pir tumanida **1790,5** ming so'mni (**75,1** %) va Amudaryo tumanida **1794,7** ming so'mni (**75,3** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



### Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik  
tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2165,9</b>	<b>2383,4</b>	<b>110,0</b>
Nukus shahri	2738,0	3034,5	110,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1687,6	1794,7	106,3
Beruniy	1687,6	1764,9	104,6
Bo'zatov	2549,4	1818,3	71,3
Qorao'zak	1642,1	1841,9	112,2
Kegeyli	1886,5	1996,8	105,8
Qo'ng'iro't	2420,3	2889,6	119,4
Qonliko'l	2000,8	1825,2	91,2
Mo'ynoq	1632,8	1835,2	112,4
Nukus	1867,4	2319,9	124,2
Taxiatosh	2074,9	2436,8	117,4
Taxtako'pir	1793,9	1790,5	99,8
To'rtko'l	1814,3	1919,5	105,8
Xo'jayli	1949,1	2075,9	106,5
Chimboy	1763,2	2007,8	113,9
Shumanay	1703,1	1958,0	115,0
Ellikqal'a	1832,1	2009,8	109,7



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2020- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **679 330** so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

***Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi  
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57***